

JAMOAT TRANSPORTINING HAYOTIMIZDAGI TUTGAN O‘RNI

Bobojonov Shodlik Erka og‘li

Urganch davlat universiteti 2-bosqich talabasi

E-mail: Shodlikbobojonov2004@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jamoat transporti haqida ma’lumotlar, hayotimizda foydalanish madaniyati, transporti ahamiyatini oshirish bo‘yicha bajarilayotgan ishlar, yo‘lovchilar uchun qulayliklari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Urbanizasiya, Jamoat transporti, yo‘lovchi, yo‘nalish qatnovi, zamonaviy axborot vositalari.

THE ROLE OF PUBLIC TRANSPORT IN OUR LIFE

ABSTRACT

This article provides information about public transport, the culture of using it in our lives, the work being done to increase the importance of transport, and information about its convenience for passengers.

Keywords: Urbanization, public transport, passenger, route traffic, modern media.

Hozirgi hayotimizni avtomobillarsiz tasuvur qilishimiz qiyin. Urbanizasiya jarayonining jadallashuvi, megapolis shaharlarning ko‘payishi, aholi sonining o‘shishi natijasida jamoat transportiga bo‘lgan talab va ehtiyoj yil sayin oshib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, jamoat transporti xizmati sifatini oshirish, madaniyatini yuksaltirish, uni bugungi davr va sharoitga moslashtirishni taqozo etmoqda.

Jamoat transporti - yo‘lovchilar jamoat foydalanishi mumkin bo‘lgan, odatda jadval

bo'yicha boshqariladigan, belgilangan marshrutlarda ishlaydigan shahar avtobuslari, trolleybuslar, tramvaylar va yo'lovchi poezdlari, tezkor tranzit (metro yer osti va boshqalar) va paromlar.

Jamoat transporti faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish:

- ✓ qatnovlar xavfsizligini yanada oshirish;
- ✓ yo'lovchilarga yuqori madaniyatli xizmat ko'rsatish sifatini oshirish;
- ✓ jamoat transportini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- ✓ shahar aholisining transportga bo'lgan ehtiyojini chuqur o'rganib, to'liq qondirish;
- ✓ avtosaroylarni yangi, zamonaviy avtobuslar bilan bosqichma-bosqich ta'minlab borish;
- ✓ metropolitenning yangi bekatlari qurib bitkazish;
- ✓ zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish vositasida bosqichma-bosqich elektron to'lov tizimini joriy etish belgilash kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Qishloqlarda jamoat transporti ahamiyatini oshirish hisobiga har bir yo'nalishga investorlarni jalb qilishga erishish mumkin. Yangi ochiladigan barcha yo'nalishda tashish jarayoni yagona elektron platformada, avtomatlashtirilgan tarzda tashkil etiladi. Yo'lovchilar uchun mobil ilovalar, aqlli (smart) bekatlar, mahalliy operatorlarning o'zaro outsorsing, insorsing operatsiyalarini tezkor amalga oshirish platformalari operatorlar faoliyati, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilaydi, baholash jarayonida korrupsiya va inson omili ta'sirini bartaraf qiladi. Eng muhimi, yo'lovchilarga kerakli hajmda, hamyonbop, kafolatlangan va sifatli transport xizmati ko'rsatishni ta'minlaydi.

Jamoat transportida

o'tirgan vaqtingizda transportga qariya, homilador, nogiron, yoki go'dakka darhol o'rindan turib joy berish nafaqat odob, balki o'ziga nisbatan ham hurmat belgisi ekanligini unutmaslik lozim;-boshqa tarafdin, agar sizga jamoat transportida joy berishsa, buni iltifot bilan qabul qilib, minnatdorchilik bildirish jamoat

transportidagi odamlarda axloqiy ruhni paydo qiladi;-hattoki, taklif qilingan o‘rinni rad qilgan taqdiringizda ham, (masalan, keyingi bekatda tushishingiz kerak bo‘lsa) tashakkur aytib, bir og‘iz shirin so‘zni ayamagan ma’qul; -yo‘l kiragahamma o‘zi uchun o‘zi to‘laydi;-erkak kishi faqatgina yaxshi tanish bo‘lgan ayoligagina yo‘lkira to‘lashlari mumkin. Biletini esa oson topiladigan joyda saqlash kerak;-o‘rinlarni sumka va boshqa narsalar bilan band etmaslik kerak;-agar transportda gazeta yoki kitob o‘qib ketayotgan bo‘lsangiz, ularni yoningizdagi yo‘lovchigaga halaqit bermagan holda ushlagan ma’qul. Birovni o‘qiyotgan gazetasiga qarash to‘g‘ri emas. Bolalar bilan ketayotgan ota-onalar ularni yo‘lovchilarga halaqit berishlariga yo‘l qo‘ymasliklari lozim;-transportda soch tarash, labini bo‘yash va pardoz qilish noo‘rindir. Ayniqsa, avtobus, tramvaylarga kir, iflos kiyimlardachi qish mumkin emas. Shu bilan birga qirqadigan, o‘tkir va boshqa odamlarga zarar keltiruvchi narsalar bilan transportga chiqish yo‘lovchilarni qiynab quyishi mumkin. Chipta nazoratchilari ham bunga e’tibor qaratmog‘i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1. Jamoat transportini rivojlantirish - www.Yuz.uz
2. Wikipediya.org
3. Muhammadyusuf Shokirjonov, O‘ktam Eshonqulov, Farhod Ibrohimov (2022)-
Jamoat transportlaridan foydalanish madaniyati yohud farosat ham bir rizq /
International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and
Education